

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.10801771>

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA BO'LAJAK
TARBIYACHINING KREATIVLIGINI
RIVOJLANTIRISH**

Shahnozaxon Boymirzayeva Olimjon qizi

Qo‘qon universiteti o‘qituvchisi

boymirzayeva.shaxnoza@mail.ru

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada maktabgacha ta'lism tashkilotida tarbiyachilarining kreativligini shakillantirish, kreativlik to‘g‘risida olimlarning tadqiqotlari va fikirlari, tarbiyachilarining maktabgacha ta'lism tizimida yangi pedagogik texnologiyalar asosida faoliyat jarayonlarini tashkil etishi, o‘z ustida ishlashi, erinmasligi, yangi g‘oylar yaratishi, izlanishlar olib borishi, o‘zining hizmat vazifasini sidqidildan bajarishi, bo‘lajak tarbiyachining kreativligi va kompetentligini takomillashtirishga oid hamkorlikdagi ta'lism hamjamiyatlari hamda kasbiy rivojlanishi uchun tavsiyalar, tarbiyachining kasbiy mahorati va qobilyatini rivojlanishning nazariy va tashkiliy asoslari haqida so‘z boradi

Kalit so‘zlar: Kreativ, tasavvur, fikir, ijodkorlik, pedagogic texnologiya, metod

ABSTRACT

In this article, the formation of the creativity of educators in the organization of preschool education, the researches and opinions of scientists about creativity, the organization of activity processes of educators in the system of preschool education based on new pedagogical technologies, work on themselves, not melting, creating new ideas, conducting research, diligently fulfilling his duty, recommendations for

collaborative educational communities and professional development for improving the creativity and competence of the future educator, theoretical and organizational foundations of the development of the professional skills and abilities of the educator

Key words: Creative, imagination, idea, creativity, pedagogical technology, method

KIRISH

Har qanday jamiyatda barkamol avlodni tarbiyalash, voyaga yetkazish hamda uni ma'lum bir kasbga yo'naltirish og'ir va mashaqqatli mehnat evaziga amalga oshiriladi. Bu mashaqqatli mehnat uzlucksiz ta'lim va tarbiyaviy faoliyatning mahsulidir. Shaxs tarbiyasi xususiy ish emas, balki milliy, ijtimoiy va davlat ishidir. Yurtimizning kelajagi, mustaqil O'zbekistonning istiqboli, ta'lim sohasida olib borilayotgan ko'plab islohotlarning muvaffaqiyati ko'p jihatdan tarbiyachi-o'qituvchiga, uning saviyasiga, tayyorgarligiga, fidoyiligiga, yosh avlodga ta'lim berish va barkamol inson darajasida tarbiyalab, voyaga yetkazishga nisbatan shijoatiga bog'liq Pedagogning kreativlik sifatlariga ega bo'lishi uning shaxsiy qobiliyatlari, tabiiy va ijtimoiy quvvatini kasbiy faoliyatni sifatli, samarali tashkil etishga yo'naltiradi. Oliy ta'lim tizimida faoliyat yuritayotgan pedagoglarning kreativlik sifatlariga ega bo'lishlari ularda o'quv va tarbiya jarayonlarini tashkil etishga an'anaviy yondashishdan farqli yangi g'oyalarni yaratish, bir qolipda fikrlamaslik, o'ziga xoslik va tashabbuskorlik hamda noaniqlikka toqat qilmaslikka yordam beradi. Kreativlik sifatlariga ega pedagog kasbiy faoliyatinitashkil etishda quyidagilarga: ijodiy yondashish, yangi, ilg'or, bolalarning o'quv faoliyatini, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladigan g'oyalarni yaratishda faollik ko'rsatish, ilg'or pedagogik yutuq va tajribalarni mustaqil o'rganish, shuningdek, ham kasblar bilan pedagogik yutuqlar xususida doimiy, izchil fikr almashish tajribasiga ega bo'lishga e'tibor qaratadi. Pedagoglarning kreativlik qobiliyatga ega bo'lishlari odatda: pedagogik muammolarni hal qilishga intilish, ilmiytadqiqot ishlari yoki ilmiy loyihalarni amalga oshirish va o'zaro ijodiy hamkorlikka erishishlari orqali ta'minlanadi, shakllantiriladi va u asta- sekin takomillashib,

rivojlanib boradi. Bo'lajak pedagoglarning kreativlik qobiliyatiga ega bo'lishlari kasbiy faoliyatni tashkil etishda izchil rivojlantirib boriladi. Shuningdek, bunda pedagogning o'zini o'zi ijodiyfaoliyatga yo'naltirishi va bu faoliyatni samarali tashkil eta olishi muhim ahamiyat kasp etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Amerikalik psixolog P.Torrensning fikricha, kreativlik muammo yoki ilmiy farazlarni ilgari surish; farazni tekshirish va o'zgartirish; qaror natijalarini shakllantirish asosida muammoni aniqlash; muammo yechimini topishda bilim va amaliy harakatlarning o'zaro qarama-qarshiligidagi nisbatan ta'sirchanlikni ifodalaydi. Boshqa har qanday sifat (fazilat) kabi kreativlik birdanigashakllanmaydi. Kreativlik muayyan bosqichlarda izchil shakllantirib va rivojlanirilib boriladi.


J.Gilfodning fikricha, kreativlik va ijodiy imkoniyat, qobilyatlar va ijodiy tafakkurga ta'sir etuvchi omillar yig'indisi sifatida namoyon bo'ladi. Ken Robinsonning fikricha, —kreativlik – o'z qiymatiga ega original g'oyalar majmui (Azzam, 2009 y.) sanaladi. Gardner bo'lsa, o'z tadqiqotlarida kreativlik tushunchasini shunday izohlaydi: —kreativlik – shaxs tomonidan amalga oshirilaigan amaliy harakat bo'lib, u o'zida muayyan yangilikni aks ettirishi va ma'lum amaliy qiymatga ega bo'lishi lozim.

Emebayl (1989-y.) ning yondashuvi nuqtai nazaridan ifodalansa, kreativlik —muayyan soha bo'yicha o'zlashtirilgan puxta bilimlar bilan birga yuqori darajada noodatiy ko'nikmalarga ham ega bo'lish demakdir.

NATIJALAR

O'tkazilgan so'rov nomasi natijasida tadqiqot avvalidagi tarbiyachilarining kasbiy kompetentligi kreativligi va innovatsion faoliyatini tizimli tashkil etish holati ko'rsatkichi:

		Tarbiyac hining	Tarbiyac hining	Tarbiya chinig	Tarbiy achining	
Tadqiqot joyi	O'zl ashtirish dara jasi	Kasbiy Kompete ntligini rivojlang anligi	Kreativ Qobiliyat ini rivojlang anligi	Pedagog ictexnologiya lardan foydala nishholati	Innova tsion faolligi	I
Farg' ona	Yuq ori	4	5	4	6	9
viloy ati	O'rta	10	8	9	8	5
Risht on						
tuma ni						
26-						
DMTT	Past	2	3	3	2	0
Jami		16	16	16	16	



MUHOKAMA

Buning asosiy sabablarini quyidagilarda deb bildik:

1. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini, kreativligini va innovatsion faoliyatini tashkil etish uchun shart-sharoitlar yetarli darajada tashkil etilmaganligi. 5-6 yoshli bolalar guruhlari faoliyatini innovatsion pedagogik texnologiyar asosida tashkil etilmaganligi.
2. Maktabgacha ta'lim tashkilotida tarbiyachilar o'rtasida sog'lom raqobatdoshlik muhitini yaratilmaganligi;
3. Tashkilot tarbiyachilari bu borada qo'shimcha izlanishlar olib bormayotganligi; Bo'lajak tarbiyachining kasbiy kompetentligi, kreativligi va innovatsion faoliyatini tizimli tashkil etishda quyidagilarga ahamiyat berish zarur:
 1. Tarbiyachilarning ma'naviy-axloqiy sifatlarini va xatti-harakatlarini tarbiyalash.
 2. Tarbiyachilarning kasbiy mahoratlarini innovatsion pedagogik texnologiyalar vositasida faoliyatlarni tashkil etish, xulq madaniyati va shaxslararo ijobiy munosabatlarni tarbiyalash.
 3. Tarbiyachiga jamoada o'zaro hamkorlikda faoliyatlarini olib borishlari, —Ustoz-shogirdl tizimi ijobiy natijalarga olib kelishini metodlar vositasida ularning ongiga singdirish.
 4. Xulqdagi salbiy sifatlarni barham toptirish.

XULOSA

Tarbiyachining kreativligini uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg‘ularida, muayyan faoliyat turlarida ko‘rish mumkin. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini ifodalaydi. Qolaversa kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida ham aks etadi, u zehni o‘tkirlikni belgilab tarbiyalanuvchilarni e’tiborini ta’lim jarayoniga faol jalb etishni ta’minlaydi. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, bo‘lajak tarbiyachini kreativligini, o‘zidagi ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun eng avvalo kerakli muhitni yaratish zarur. Tarbiyachining kundalik faoliyatlariga axborot, kompyuter texnologiyasi yordamida kreativ yondashuv asosida tayyorlanishi va ta’lim jarayonida samarali foydalanishi qolaversa o‘zidagi ijodiy mahsulotlarni namoyon etishi natijasida ta’lim sifatining oshishiga sabab bo‘ladi. Kreativ kompetentli yondashuv asosidagi ta’lim berishni tizimli tashkil etish shuni ko‘rsatadiki, unda qo‘sishma ravishda shaxsiy-psixologik rivojlantirishni ham talab etadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

- 1.*F.R. Qodirova, N.M. Qayumova, M.N. Agzamova “Maktabgacha pedagogika” Toshkent-2019 –yil,672 b*
2. *N.T.Tosheva “Maktabgacha ta’lim –tarbiyani tashkil etish” Buxoro-2022-yil,344*
3. *Sh.O.Boymirzayeva (2024) DEVELOPMENT OF CREATIVITY OF THE FUTURE EDUCATOR IN THE PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATION. International Journal of Discoveries and Innovations in Applied Sciences 20-22*
- 4.*http://ru/wikipedia.jrg/wiki/Metodы obucheniya.*
- 5.*mahoratacademy.uz*
- 6.*Soliyev Ilhomjon Sobirjonovich, Boymirzayeva Shakhnoza Olimjon kizi. Professional Competence of a Teacher as a Factor of Increasing the Quality of Preschool Education. International Journal of Culture and Modernity. ISSN 2697-2131, Volume 18/July-2022, 95-99 bet.*

7. Soliyev Ilhomjon Sobirjonovich, Boymirzayeva Shahnoza Olimjon qizi. *MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIDA INNOVATSION YONDASHUVNING USLUBIY ASOSLARI VA PEDAGOGIK SHART SHAROITLARI. ILM-FAN VA INNOVATSIYA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI* *in-academy.uz/index.php/si*, 128-129 bet.

8. I.S. Soliyev, Sh.O. Boymirzayeva. *TARBIYACHILAR KASBIY KOMPITENTLIGINI OSHIRISH, MAKTABGACHA VA BOSHLANG,,ICH TA''LIMNING DOLZARB MASALALARI: MUAMMO, YECHIMLAR VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI* *Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani MATERIALLARI*, 364-365 bet.